

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Бекмуродов Мансур IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ROLI.....	5
2. Сеитов Азамат, Вахидов Имран РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧАЮЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ В КОНТЕКСТЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	16
3. Латипова Нодира, Турсунов Рустам, Кара Шохсанам ВОСПРИЯТИЕ НАСИЛИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	25
4. Karimov Bobir YOSH RAHBARLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	33
5. Сабирова Умида, Эрбаева Диёра ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ГАРМОНИЗАЦИЯ ТРУДОВОЙ И СЕМЕЙНОЙ РОЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	40
6. Zaitov Elyor O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI TRANSFORMATSIYASINING INSTITUTIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	46
7. Хидиров Сухроб ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ (ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИДА)...	54
8. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI JAMIYAT FENOMENINING SOTSIOLOGIK ASOSLARI.....	60
9. G'oyibov Elyor O'ZINI O'ZI TAKOMILLASHTIRISH (SELF-MANAGEMENT) OMILINI RIVOJLANISHINING GURUHIY DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	67
10. Ibragimov Murodjon YOSHLAR TASHKILOTLARINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA IJTIMOIYLAHUV OMILINING O'RNI.....	73
11. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” IJTIMOIY HARAKATIDA MOTIVATSIYA, KO'NIKMA VA MOLIYAVIY KO'MAK TIZIMI.....	82
12. Tadjibayeva Venera BOQIMANDALIK TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI.....	89

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Ibragimov Murodjon,

О‘zbekiston Milliy universiteti

Sotsiologiya kafedrası katta o‘qituvchisi (PhD)

e-mail: ibragimovmurad1994@gmail.com

YOSHLAR TASHKILOTLARINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA IJTIMOYLAHV OMILINING O‘RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20064400>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muallif yoshlar tashkilotlarining kommunikativ faoliyatni tashkil etish jarayonida ijtimoiylashuv omilining o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqotda yoshlarning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy tajriba orttirishi hamda muloqot ko‘nikmalarining shakllanishida yoshlar tashkilotlarining institutsional roli yoritiladi. Shuningdek, kommunikativ faoliyatning samaradorligi ijtimoiylashuv darajasi bilan chambarchas bog‘liqligi ilmiy asosda izohlanadi. Mazkur tadqiqot yoshlar tashkilotlarida kommunikativ jarayonlarni samarali yo‘lga qo‘yishda ijtimoiylashuv omilining funksional ahamiyati hamda uning yoshlarning ijtimoiy faolligi va o‘zaro hamkorligini rivojlantirishdagi rolini ochib beradi. Maqolada sotsiologik yondashuvlar, nazariy qarashlar hamda amaliy misollar asosida yoshlar muhitida muloqot jarayonlarini rivojlantirishning muhim jihatlari ochib beriladi. Natijada yoshlar tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan faoliyatning ijtimoiylashuvga ta‘siri va bu jarayonning kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, yoshlar tashkilotlari, NNT, kommunikatsiya, muloqot, kommunikativ faoliyat, ijtimoiylashuv, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy tajriba, ijtimoiy muhit, jamiyat, ijtimoiy jarayon, ijtimoiy faollik, yoshlar faolligi, kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati, interaksiya, ijtimoiy institutlar, guruhiy faoliyat, jamoa, liderlik, ijtimoiy rivojlanish, shaxs shakllanishi, ijtimoiy munosabatlar, madaniyat, qadriyatlar, kommunikativ ko‘nikmalar, hamkorlik, ijtimoiy rol, ijtimoiy tizim, ijtimoiy aloqalar.

Ибрагимов Муроджон,

Национальный университет Узбекистана,

старший преподаватель кафедры социологии (PhD)

e-mail: ibragimovmurad1994@gmail.com

РОЛЬ ФАКТОРА СОЦИАЛИЗАЦИИ В ОРГАНИЗАЦИИ КОММУНИКАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МОЛОДЕЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор анализирует роль фактора социализации в организации коммуникативной деятельности молодежных организаций. В исследовании раскрывается институциональная роль молодежных организаций в процессе адаптации молодежи к

обществу, накопления социального опыта и формирования коммуникативных навыков. Также на научной основе обосновывается тесная взаимосвязь эффективности коммуникативной деятельности с уровнем социализации. В статье раскрывается функциональное значение социализации в выстраивании коммуникативных процессов молодежных организаций и её влияние на развитие социальной активности и взаимодействия молодежи. В статье на основе социологических подходов, теоретических концепций и практических примеров освещаются ключевые аспекты развития коммуникационных процессов в молодежной среде. В результате обобщается влияние деятельности молодежных организаций на социализацию и значение данного процесса в формировании коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: молодежь, молодежные организации, ННО, коммуникация, общение, коммуникативная деятельность, социализация, социальная адаптация, социальный опыт, социальная среда, общество, социальный процесс, социальная активность, активность молодежи, коммуникативная компетенция, культура речи, интеракция, социальные институты, групповая деятельность, коллектив, лидерство, социальное развитие, формирование личности, социальные отношения, культура, ценности, коммуникативные навыки, сотрудничество, социальная роль, социальная система, социальные связи.

Ibragimov Murodjon,

National University of Uzbekistan,
Senior Lecturer at the Department of Sociology (PhD)
e-mail: ibragimovmurad1994@gmail.com

THE ROLE OF THE SOCIALIZATION FACTOR IN ORGANIZING COMMUNICATIVE ACTIVITIES OF YOUTH ORGANIZATIONS

ABSTRACT

In this article, the author analyzes the role of the socialization factor in organizing communicative activities within youth organizations. The study highlights the institutional role of youth organizations in the process of young people's adaptation to society, acquisition of social experience, and development of communication skills. It also scientifically substantiates the close relationship between the effectiveness of communicative activity and the level of socialization. The study explores the functional role of socialization in structuring communication processes within youth organizations and its impact on enhancing youth social activity and collaborative engagement. Based on sociological approaches, theoretical perspectives, and practical examples, the article reveals key aspects of developing communication processes in the youth environment. As a result, the impact of youth organizations on socialization and the importance of this process in shaping communicative competencies are summarized.

Keywords: youth, youth organizations, NGOs, communication, interaction, communicative activity, socialization, social adaptation, social experience, social environment, society, social process, social activity, youth activity, communicative competence, speech culture, interaction, social institutions, group activity, team, leadership, social development, personality formation, social relations, culture, values, communication skills, cooperation, social role, social system, social ties.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot asrida yoshlarning jamiyatda ijtimoiylashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiylashuv jarayoni orqali yoshlar nafaqat ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydilar, balki ularda mas'uliyat, yetakchilik va jamoaviy ish ko'nikmalari rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan bizningcha, yoshlar tashkilotlari ushbu jarayonning asosiy poydevori sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Zamonaviy jamiyatda yoshlar tashkilotlari ijtimoiy rivojlanishning muhim instituti sifatida shakllanib, ularning faoliyatida kommunikatsiya jarayonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv va raqamlashuv sharoitida yoshlarning o'zaro muloqoti, axborot almashinuvi va

ijtimoiy faolligi yangi bosqichga chiqmoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlar tashkilotlarida kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etishda ijtimoiylashuv omilining o'rnini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni orqali yoshlar jamiyat normalari, qadriyatlari va muloqot madaniyatini o'zlashtiradi. Bu esa ularning jamoadagi o'rnini belgilash, ijtimoiy rollarni qabul qilish va samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar tashkilotlarida ijtimoiylashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, kommunikatsiya jarayonlari shunchalik tizimli va samarali amalga oshiriladi.

Mazkur tadqiqotda yoshlar tashkilotlarining kommunikativ faoliyatini tashkil etishda ijtimoiylashuv omilining ta'siri sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Uning yoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ijtimoiy faollik va jamoaviy hamkorlikni shakllantirishdagi roli ilmiy asosda yoritiladi.

METODOLOGIYA

Tizimli tahlil – tadqiqotda yoshlar tashkilotlarining kommunikativ faoliyati hamda unda ijtimoiylashuv omilining o'rnini tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Ushbu metod orqali yoshlar tashkilotlaridagi kommunikatsiya jarayonlari, ularning ichki va tashqi aloqalari, axborot almashinuvi mexanizmlari hamda ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi omillar kompleks tarzda tahlil qilindi. Natijada yoshlarning tashkilot doirasida ijtimoiy rollarni egallashi, qadriyatlarni o'zlashtirishi va ijtimoiy integratsiyalashuv jarayonlari aniqlashtirildi.

Qiyosiy tahlil – tadqiqotda turli yoshlar tashkilotlarining kommunikativ faoliyati va undagi ijtimoiylashuv jarayonlari o'zaro solishtirildi. Ushbu metod orqali davlat va nodavlat yoshlar tashkilotlari, shuningdek, turli hududlardagi tashkilotlar faoliyatining kommunikativ xususiyatlari taqqoslandi. Natijada kommunikatsiya uslublari, ijtimoiylashuv shakllari va ularning samaradorligidagi farqlar hamda umumiy jihatlar aniqlandi.

Intervyu usuli – yoshlar yetakchilari va tashkilot faollari bilan yarim tuzilgan intervyular o'tkazilib, kommunikativ jarayonlarning mazmuni va ijtimoiylashuvga ta'siri chuqur tahlil qilindi.

Emil Durkgeym jamiyatni ijtimoiy integratsiya va kollektiv ong orqali tushuntirib, yoshlar tashkilotlari kommunikatsiyasi ijtimoiylashuvning muhim instituti ekanini asoslab beradi [1].

Max Weber rasionallik nazariyasi orqali tashkilotlardagi kommunikatsiya jarayonlarini maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat sifatida talqin qilish imkonini beradi [2].

Georg Zimmel ijtimoiy shakllar nazariyasida kommunikatsiyani ijtimoiy o'zaro ta'sirning asosiy shakli sifatida ko'rib, yoshlar o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilishga metodologik asos yaratadi [3].

Pier Burdie madaniy kapital va habitus tushunchalari orqali yoshlarning tashkilot doirasida ijtimoiylashuvi va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini izohlaydi [4].

Yurgen Habermas kommunikativ harakat nazariyasi orqali yoshlar tashkilotlarida muloqot va diskurs madaniyatining shakllanishini tahlil qilish imkonini beradi [5].

Antony Giddens strukturatsiya nazariyasi asosida kommunikatsiya va ijtimoiylashuvning o'zaro bog'liqligini ochib beradi [6].

Manuel Castells tarmoq jamiyati nazariyasi orqali yoshlar tashkilotlarida raqamli kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlarning rolini tushuntiradi [7].

ASOSIY QISM

Ijtimoiylashuv shunday jarayonki, unda ojiz chaqaloq o'zi tug'ilgan madaniyatning mohiyatini tushunadigan, o'zini-o'zi anglay oladigan aqlli mavjudotga aylanib boradi [8]. Darhaqiqat, ijtimoiylashuv turli sotsial institutlar orqali amalga oshadigan sotsial hodisa hisoblanadi. Yoshlarning ma'lum bir yoshlar tashkilotlariga ijtimoiylashuvining asosiy bosqichi yesa asosan ta'lim olish yoshidagi qatlam bilan bog'liqdir. Shuning uchun mazkur tashkilotlarning ijtimoiylashuvdagi ahamiyati muhim hodisa hisoblanadi.

Yoshlar tashkilotlari ijtimoiy institut sifatida jamiyatning faol a'zolarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilotlar orqali yoshlar ijtimoiy tajribalarni o'rganadi, yangi bilimlar va ko'nikmalarni egallaydi. Xususan, tashkilotlarda tashkil etiladigan seminarlar, treninglar va loyihalar yoshlarning yetakchilik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, turli davlat va nodavlat yoshlar tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy loyihalar yoshlarning ijtimoiy

mas'uliyatni his qilishlariga, jamiyatdagi muammolarni yechishga o'z hissalarini qo'shishga yordam beradi. O'z navbatida ushbu omillar yoshlarning tashkilotlarga ijtimoiylashuvi masalalarini asosiy kompetensiyasi bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar tashkilotiga a'zo bo'lishdan avval o'z tengdoshlari bilan muloqot qiladi, ular orqali tashkilot haqida ma'lumot oladi. A'zo bo'lgan yoshlar turli tadbir va loyihalarda faol ishtirok etib, ijtimoiy faollikni oshiradi, o'z navbatida networking shakllanadi bu orqali mazkur tarmoqda ijobiy kommunikativ aloqalar tizimi shakllanadi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, networking vositasi orqali yoshlar tanish orttiradilar, ijobiy fazilatlarini shakllanishida tengdoshlari va tashkilot a'zolaridan namuna oladilar bu yesa ijobiy fazilatlarining shakllanishi o'laroq yoshlarning keng imkoniyatlarga ega bo'lishlari ma'lum ma'noda xizmat qilishi mumkin.

Tashkilotning ichki qoidalariga moslashish va jamoaviy faoliyatga qo'shilish jarayonida yoshlar ijtimoiylashuvning chuqur bosqichiga o'tadi. Yoshlarning tashkilotlar orqali ijtimoiylashuvi nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, tashkilotlarda yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirgan yoshlar kelajakda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida muhim rol o'ynaydi. Yoshlarning yoshlar tashkilotlariga ijtimoiylashuvi ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim omildir. Avvalo, yoshlar tashkilotlari yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali jamiyat uchun faol qatlam shakllanishida o'z hissasini qo'shish vazifasining ustuvor ekanligi bilan ajralib turadi, zero ijtimoiylashuv jarayoni ham mazkur hodisaga asos bo'lib xizmat qiladi.

“Xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor ishbilarmon va faol yoshlarni qo'llab quvvatlash lozim [9]. Bu jarayon orqali yoshlar nafaqat o'z salohiyatlarini kashf etadi, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatlarini anglaydi. Shunday ekan, yoshlar tashkilotlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularni yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Yoshlarning intellektual qobiliyatlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularni ma'naviy kamol toptirish, mehnat faoliyatida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarini uyg'unlashtirish, ularni samarali mehnat qilishga o'rgatish, ijtimoiy faolligini oshirish yoshlar tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Qolaversa yoshlarning o'zaro kommunikativ faoliyatini takomillashtirishda yoshlarning sotsial institutlar bilan ijtimoiylashuv jarayonlaridagi o'zaro hamkorligi muhim hisoblanadi.

Yoshlar jamiyat tarkibidagi alohida ijtimoiy-demografik guruhdir. Xususan, hozirgi kunda dunyo yoshlari 2 milliardni tashkil etsa, shuning qariyb 10 millionga yaqin qismi ya'ni aniq raqamlarga tayanib aytadigan bo'lsak, mamlakatda 14-30 yoshlar oralig'idagilar 9,6 millioni [10]. O'zbekiston yoshlaridir. Shu bois, yoshlarga jamiyatning boshqa a'zolaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlar va tavsiflar xos. Mazkur xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotga kirib borishi, hayot yo'llarini topishi, o'zining shaxsiy, ijtimoiy mavqeyiga erishuvini dolzarb muammoga aylantiradi.

Ma'lumki yoshlarning balog'atga yetishi, hayotda o'z o'rnini tanlashi inson hayoti va amaliy faoliyatining turli sohalarida namoyon bo'ladi. Bu ta'lim – tarbiya, katta avlodning tajribasini qayta qo'rib chiqish va o'zida jo etish orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayonning asosiy ijtimoiy-psixologik boshqaruvchisi bo'lib ijtimoiy institutlar me'yorlar, qadriyatlar hisoblanadi. Aynan shu kabi omillar yoshlarning aqliy va amaliy faoliyatini, ularga xos bo'lgan muammolar spetsifikasini, ularning qiziqishlarini o'zini-o'zi boshqarish va idora qilish xususiyatlarini ko'p jihatdan belgilaydi va bunda turli sotsial institutlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiylashuv davri yoshlarning ma'lum ijtimoiy institutlarda faol yoki nofaol bo'lishlariga ham bog'liq. Yoshlar tashkilotlarining asosiy maqsadi ham o'z navbatida uyushmagan yoshlarni birlashtirib, ularning ta'lim olishi hamda mehnat faoliyati bilan band bo'lgan holda ijtimoiy faol bo'lishlariga ko'maklash xisoblanadi. Keling biz dastavval “Uyushmagan yoshlar” tushunchasiga yanada batafsilroq e'tibor qarataylik. Professor Mansur Bekmurodovning ta'kidlashicha: “Uyushmagan yoshlar biror bir aniq faoliyat bilan band bo'lmagan, o'qimaydigan, tayinli jamoat ishlari yoki yakka tartibdagi ya'ni dehqonchilik oldi-sotdi singari mashg'ulotlarga doimiy jalb etilmagan yoshlar kiradi” [11]. Ta'kidlash joizki, yoshlarning turli guruhlariga qo'shilib

qolishlari, ularda mayda bezorilik, talonchilik, o'g'rilik kabi salbiy illatlarning paydo bo'lishida ham bo'sh vaqtning noto'g'ri taqsimlanishi xisoblanadi. Yoshlardagi befarqlik va savodsizlik milliy va umuminsoniy qadriyatlarga befarqlik natijasida paydo bo'ladi. Bunday holatlarni oldini olishda yoshlar tashkilotlarning o'rni beqiyos xisoblanadi.

Professor S.Otamurodovning fikricha: “Yoshlarning ijtimoiy-innovatsion faolligini oshirishning bir yo'nalishi bu – ularni jamiyat hayotida ijtimoiylashuvi, ya'ni umumiy maqsadlar yo'lida ijtimoiy sinflar, guruhlar va tabaqalar bilan mustahkam bo'lishi, yagona kuch sifatida harakat qilish masalasi tashkil qiladi. Zero, jamiyatdagi sinflar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o'rtasida yakdillik bo'lmasa, ularning har birlari o'z manfaatlarini yo'lida tarqoq holda harakat qilishsa, umum maqsadlar va manfaatlar yo'lidagi harakatlar ham besamar bo'lib qolaveradi” [12]. Ya'ni, muallif bu yerda yoshlarni ijtimoiy guruh sifatida ta'riflab, ularda o'zaro yakdillik va hamjihatlik jihatlari bo'lmasa, ertangi jamiyatda umum maqsadlarga erishish besamar bo'lishini ta'kidlaydi. Fikrimizcha ham jamiyatning umumiy yakdilligi va farovon bo'lishida shaxs ijtimoiylashuvida turli sotsial institutlarning ahamiyati beqiyosdir.

Ta'kidlash joizki, yoshlar tashkilotlarining asosiy maqsadlari ham yoshlarni jamiyat, davlat va millat kelajagi uchun umumiy qadriyatlar asosida ularning qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda birlashtirishga harakat qiladi. Shu o'rinda aytish lozimki, yuqoridagi vazifalarni bajarishda yoshlar tashkilotlaridagi o'zaro hamkorlikka qaratilgan kommunikativlikning ahamiyati sezilarli darajada muhim rol o'ynaydi. Agar biz yoshlarga inson hayotining ma'lum bir davri sifatida nazar soladigan bo'lsak, aynan mazkur (16-30 yosh) davrda yoshlarda o'zini-o'zi anglashi va ijtimoiy mavqeyining shakllanishi asoslarining yaratilishini kuzatish mumkin bo'ladi. Yoshlar ongi katta miqdordagi turli xil axborotlarni qabul qilish va aks ettirish xususiyatiga ega. Mazkur jarayonlar tufayli yoshlarda tanqidiy fikrlash shakllanadi, ular turli harakat va jarayonlarga mustaqil baho berishga, o'zining shaxsiy nuqtai nazarini asoslashga, ma'lum qarorlarga kelishga intiladilar. Ammo mazkur jarayonlar bolalikda shakllanib, bo'lg'usi shaxs ongida ildiz otgan va hamon saqlanib qolgan ma'lum stereotiplardan ham xoli emas. Nazarimizda, bunda faol yaratuvchilikka bo'lgan intilish amaliy faoliyat doirasidagi imkoniyatlarning cheklanganligi bilan to'qnashadi.

Yoshlar xarakteridagi qarama-qarshi xususiyat va tavsiflarning (konformizm va negativlik, e'tirof etilgan umumiy me'yorlarni qabul qilish va rad etish, keng muloqotga yoki butunlay yolg'izlikka intilish) kelib chiqishi ham mazkur jarayon bilan bog'liq [13].

Yoshlarda qiziqish va ehtiyojlar shakllanishining murakkab va serqirra jarayonini to'la tushunib olish uchun, eng avvalo, “ijtimoiylashuv” kategoriyasining mohiyati to'g'risida aniq va to'la tasavvurga ega bo'lish lozim. G'arb tadqiqotchilari o'rtasida ijtimoiylashuvni individning tashqi ijtimoiy shart-sharoitga moslashuvi (adaptatsiya) deb tushunish keng tarqalgan. Ijtimoiylashuvni shunday ma'noda tushunish shaxsning ijtimoiy hayot tarixiy tajribasini to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirishi hamda uning ma'lum ijtimoiy muhitdagi hukmron qonun-qoidalarga, mavjud ko'rsatmalarga ko'r-ko'rona rioya qilishi lozimligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, bunday ta'rifda insonga passiv rol ajratiladi, uning faoliyati esa, avvalgi avlod qoldirgan merosni o'zlashtirish bilangina cheklanadi.

“Ijtimoiylashuv” kategoriyasini tahlil etishda ijtimoiy borliqning inson shakllanishidagi hal qiluvchi roldan kelib chiqish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Chunki individ tabiat mahsuli, biologik jonzo to'libgina qolmay, balki ma'lum ijtimoiy tuzumning, ijtimoiy shart-sharoitning ham mahsulidir. Ko'pgina olimlar tomonidan ijtimoiylashuv individning jamiyat, xalq, ijtimoiy guruh, millat va elatlar qadriyatlarini o'zlashtirishi, ularga ijtimoiy munosabat sifatida mazmun berishi hamda, ularni mavjud jamiyat ijtimoiy munosabatlar tizimi darajasiga ko'tarishi ma'nosida tushuntiradilar. Ta'kidlash joizki, Ijtimoiylashuv jarayoni yoshlarning jamiyatga moslashishi, undagi me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirishi, shaxs sifatida shakllanish jarayoni qamrab oluvchi jarayon hisoblanadi. Bu jarayon yoshlar o'zlarini atrofdagi ijtimoiy guruhlar, institutlar va ijtimoiy muhit orqali qanday qabul qilishini va ularga qanday javob berishini anglatadi.

Dastavval yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida ta'sir etuvchi asosiy omillar haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Jamiyatda kishilarning ijtimoiylashuvi turli sotsial institutlar bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, oila instituti yoshlarning ilk ijtimoiylashuviga sabab buladi, unda individ

o'zining dastlabki ko'nikmalarini shakllantiradi. Ota-onalarning tarbiyaviy usullari, oila muhitidagi munosabatlar, yoshlarning ijtimoiylashuviga kuchli ta'sir qiladi. Ta'lim maskanlari yoshlarning nafaqat bilim olishiga, balki ijtimoiy ko'nikmalarni egallashiga ham xizmat qiladi. O'zaro muloqot orqali yoshlar ijtimoiy hamkorlik qiladilar va tajriba to'pladilar.

Jamiyatdagi madaniy va diniy qadriyatlar yoshlar yashayotgan muhitdagi madaniyat, an'ana va diniy qarashlar ularning shaxsiy dunyoqarashini shakllantiradi. Ijtimoiylashuvning ahamiyati ijtimoiylashuv orqali o'z ijtimoiy rolini anglaydi va jamiyatda o'z o'rnini topadi. Ijtimoiy munosabatlar va tajribalar yoshlar shaxsining ma'naviy va ruhiy jihatdan shakllanishiga ta'sir qiladi. O'zaro muloqot va hamkorlik qilish orqali yoshlar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ma'lumki, yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayoni samarali bo'lishi uchun davlat va jamiyat o'zaro hamkorlik tamoyillari asosida ta'lim, sport, madaniyat va yoshlar siyosati sohasida keng imkoniyatlar yaratishga intiladilar. Va bu jarayonni albatta turli sotsial institutlarning aralashuviz tasavvur etish qiyin. Negaki, yoshlarning ijtimoiylashuvida xar bir bosqich alohida muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida yoshlar tashkilotlarida "sotsializatsiya" hodisasida yoshlar tashkilotlarining ham o'rni bevosita beqiyosdir.

Bugungi kunda, globallashuv sharoitlarida milliy axborot makonini saqlab qolish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot sohasida o'z mamlakatining an'analarga rioya qilish muhimligini jamiyat tomonidan anglanilgan sharoitdagina mazkur muammoni hal qilish mumkin.

Xo'sh, internet ijtimoiy tarmoqlarini yoshlarning kommunikativ faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri nimalardan iborat? Internet ijtimoiy tarmoqlar insoniy faollikning barcha sohalariga singib kirgan holda inson hayotining ko'pdan ko'p jihatlarini yangidan tashkil qilmoqda. Avvalo, internet tarmog'idan foydalanuvchi va internet-hamjamiyat ishtirokchisi tushunchalarini o'zaro farqlash zarur. Chunki, foydalanuvchi internet tarmoqlarida yuz berayotgan o'zaro muloqot va harakat jarayonlarida ishtirok etmagan holda o'zining axborot izlash, korrespondensiyalar bilan almashish jarayonlarini cheklaydi.

Internetdagi ijtimoiylashuv foydalanuvchining ijtimoiy madaniy muhitiga ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni, shuningdek, kommunikatsiya texnologiyalarini va axborot madaniyati unsurlarini o'zlashtirish orqali kirish jarayonidir. Shu tufayli ishtirokchilar ongida o'zaro yo'naltirilgan umumiy qadriyatlar shakllanadi. Muntazam asosda amalga oshiriladigan kommunikativ amaliyotlar chog'ida hamjamiyat ishtirokchilari jamoaviy o'xshashlikni yaratadilar. Shaxsning hamjamiyatning ijtimoiy voqeligi bilan ilk tanishuvi uch bosqichga taqsimlanuvchi ijtimoiylashuv jarayonida amalga oshadi:

- internet faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq ijtimoiy afsonalar va vazifalarning shakllanishi;
- tafakkur va xatti-harakatning muqobil namunalari bilan to'qnashishi mumkin bo'lgan foydalanuvchining internet-hamjamiyat qadriyatlari va g'oyalarini faol yoki nafaol tanlashi;
- foydalanuvchi ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan ijtimoiy vazifalarni qabul qilgan hamda o'z shaxsiy maqsadlari va qadriyatlarini hamjamiyatda qabul qilingan maqsadlar va qadriyatlarga moslashtirgan holda uning faol a'zosiga aylanishi.

Shaxsning axborot ehtiyojlari qondirilishi internet-hamjamiyatga kiruvchi boshqa shaxslar bilan o'zaro harakat chog'ida yuz beradi. Ushbu hamjamiyatlar doirasidagi ijtimoiylashuv foydalanuvchi tomonidan umumiy qadriyatli modellarni e'tirof etishga mo'ljallangan, shu tufayli uning ongida o'zaro yo'naltirilgan umumiy qadriyatlar va ijtimoiy vazifalar birligi shakllanadi. Shunday qilib, ijtimoiylashuv jarayoni ushbu bosqichning kattagina qismi ijtimoiy qadriyatli maqsadlar yangicha standartlarini izchil joriy etishdan iborat.

Binobarin, ijtimoiy nazorat ham hamjamiyatlarni o'zini-o'zi boshqarish doirasida ham davlat tuzilmalari yetakchi o'rinni egallaydigan an'anaviy ijtimoiy institutlar ta'siri ostida amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy nazorat amalga oshirilishi mexanizmlaridan qat'iy nazar kibermakon ijtimoiy tizimidagi o'zini-o'zi boshqarish, shubhasiz ijtimoiy tuzilmalarning yanada rivojlanishi uchun o'ta muhimdir. Zero, amaliyotning ko'rsatishicha shaxslararo kommunikatsiyalar sohasidagi davlat boshqaruvining barcha intilishlari samarasiz bo'lib chiqdi. Ijtimoiy nazorat choralarini majmual qo'llash tufayli foydalanuvchilar xatti-harakatini boshqarishning u yoki bu shakllariga nisbatan ijtimoiy kelishuviga erishiladi.

“Ijtimoiylashuv” tushunchasini tahlil etishda inson faoliyatining individ rivojidadagi muhim o‘rnini ham e‘tiborga olish zarur. Shu bilan birga, ijtimoiylashuv faqatgina shakllanayotgan shaxsning faolligi bo‘lib qolmasdan, ayni paytda, atrof-muhitning unga bo‘lgan ta‘siri hamdir.

“Faollik” kategoriyasi ijtimoiylashuvning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Chunki faollik individning ijodiy mehnat faoliyati asosidagi shaxs bilan jamiyatning o‘zaro munosabat jarayoni bo‘lib, uning natijasida inson ijtimoiylashuvining konkret-tarixiy shakliga erishiladi.

Shaxsning faolligi, eng avvalo, uning mehnat faoliyati sohasida ro‘yobga chiqadi. Mehnat sohasidagi faollik shaxs faolligining boshqa barcha shakllariga qaraganda belgilovchidir. Bu tasodifiy emas, chunki aynan shu sohada insonning olgan bilimi, orttirgan tajriba va malakasi amalda qo‘llaniladi, namoyon bo‘ladi.

Tabiiyki shu o‘rinda “Faol yoshlar” tushunchasini konkretlashtirish va yoki tushunchalarni umumlashtirish zaruriyati tug‘iladi. Bu borada S.Otamurodov shunday deydi: “Faol yoshlar deganda, jamiyat hayotining barcha sohalarida mavjud imkoniyatlardan foydalanishga salohiyatini o‘zida shakllantira olgan yoshlar tushuniladi [14] deb ta‘kidlagan. Ta‘bir joizki, yoshlarning ijtimoiy jihatdan faol bo‘lishlarida ijtimoiylashuvning ahamiyati juda ham katta. Bunda yoshlar sotsial institutlarning turli shakllarida ijtimoiylashadilar .

Hozirda ijtimoiylashuv jarayoniga inson faoliyati nuqtai nazaridan yondashish harakatlari kuzatilmoqda. Ya‘ni ijtimoiylashuv ikki tomonlama jarayon bo‘lib, bir tomondan, individning ijtimoiy muhitga kirib borish yo‘li bilan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi va ikkinchi tomondan esa, uning ijtimoiy muhitga faol kirib borishi natijasida ijtimoiy aloqalarning yangi tizimini yaratishi bo‘lib hisoblanadi [15].

Shunday qilib, ijtimoiylashuv jarayonida individ ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga va ularni o‘zining ichki ma‘naviy boyligiga aylantirishga qaratilgan hamda avvalgi avlod ijtimoiy tajribasini rivojlantirib, uni yuqori bosqichlarga ko‘tarishga qaratilgan faol harakatga jalb etiladi.

Ijtimoiylashuvning ma‘lum yo‘nalishga ega bo‘lgan shakli jamiyat manfaati va maqsadlariga mos keladigan shaxsni shakllantirishga qaratilgan, insonga ta‘sir etuvchi maxsus ishlab chiqilgan vositalar tizimidir. Bu tizim ijtimoiy ong, ijtimoiy munosabatlar va manfaatlar yig‘indisi, umuman ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda ishlab chiqiladi va u tomonidan tavsiya etilgan uslublar mavjud ijtimoiy institutlar tomonidan jamiyat ijtimoiy tuzilishini, odamlarning turmush tarzlarini, hayotiy shart-sharoitlarini, ularning ijtimoiy tajribalarini, bilim va madaniyat darajasini, ruhiyatini, ta‘lim-tarbiya xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Yoshlar ongining beqaror va ziddiyatli xarakteri ularning xulqiga va faoliyatiga, albatta, ta‘sir etadi. Buning bir necha sabablari bor, nazarimizda.

Birinchidan, hozirgi kunda yoshlar ijtimoiylashuvi jarayoni ancha murakkablashdi, shuning uchun ham ularning ijtimoiy balog‘atga yetish omillari ancha o‘zgargan. Mazkur omillar nafaqat yoshlarning mustaqil mehnat qilishlari, balki ta‘lim olishlarini tugatish, kasbga ega bo‘lish, kattalardan moddiy jihatdan butunlay mustaqil bo‘lish kabilar bilan tavsiflanadi. Turli ijtimoiy guruhlar doirasida mazkur omillar turlicha namoyon bo‘ladi, shuning uchun ham yoshlar ularga turlicha amal qiladilar, ya‘ni biron bir masalaga yoshlar o‘ta jiddiy yondashishlari mumkin bo‘lsa-da, boshqa bir masalani hal qilishda yosh bolalarga o‘xshab fikrlaydilar.

Ikkinchidan, yoshlarning ijtimoiy balog‘atga yetishuvi bir qator mustaqil omillar (oila, maktab, jamoa, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tashkilotlari va boshqa guruhlar) ta‘siri ostida amalga oshiriladi. Mazkur ijtimoiy mexanizmlarning har biri yoshlar tarbiyasini amalga oshirishda turli xil vazifalarni bajaradi va ularga o‘zgacha ta‘sir etadi.

Bugungi kunning talablaridan bir shuki, ijtimoiy tarmoqlarda ma‘lumotlardan, shu jumladan shaxsiy ma‘lumotlardan foydalanish madaniyati bo‘lishi zarur. Ammo bu sohadagi holat va jarayonlar bunday muloqot madaniyati shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi salbiy holatlar mavjud:

- foydalanuvchilarning ayrimlari o‘z nomlari bilan ro‘yxatdan o‘tmaganligi;
- nomaqbul foto sur‘atlar qo‘yilayotganligi;
- o‘zaro muloqotlarda hurmatsizlik qilish, uyatsiz va haqoratli so‘z va iboralarning qo‘llanilayotganligi;

- bema'ni gaplar yozish, ba'zan noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanish;
 - sahifalar ijtimoiy bo'lishiga qaramasdan, siyosiy ziddiyatli manfaatlarni ifoda etuvchi muloqotlar o'rnatganligi va boshqalar.

Tan olish kerakki, internetni kundalik turmushimizdan bo'lak holda tasavvur qilish juda qiyin. Shu ma'noda, global tarmoqning foydasi ko'proqmi yoki zararli? degan savol tovuq va tuxumdan qay biri oldinroq paydo bo'lgani to'g'risidagi savolni eslatadi. Ijtimoiy tarmoqlar borasida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Chunki, Instagram, Facebook Youtube yoki Twitterdan foydalanmaydigan odam zamon bilan hamqadamlikni da'vo qila olmaydi. Turli yangiliklardan xabardor bo'lish, umuman jamoatchilik fikridan xabardor bo'lish borasida ijtimoiy tarmoqlar bilan bellasha oladigan birorta ham sayt yo'q, desak adashmagan bo'lamiz.

XULOSA

Ta'kidlash joizki, yoshlar tashkilotlariga ijtimoiylashuv jarayonining ahamiyati juda muhimdir. Zero, uni turli jihatlaridan ko'rib chiqaylik. Umuman olganda shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan yoshlar tashkilotlari o'z-o'zini anglash va o'z qobiliyatlarini namoyon qilish uchun imkoniyatlar yaratadi. Yoshlarning turli tashabbuskorlik loyihalarini qo'llab quvvatlaydi, ularning ijtimoiy faolligiga yordam beradi. Ijtimoiy mas'uliyatni his qilish nuqtai nazaridan muhim o'rin tutadi. Huquqiy demokratik jamiyat takomillashuvida o'z huquq va burchlarini anglashlarida yordam beradi.

Bundan tashqari yoshlar tashkilotlari orqali yoshlar yangi do'stlar orttirish (networking) qilish imkoniga ega buladilar. Bunda yoshlar turli sohalarda yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, yangi do'stlar orttirish orqali o'zlariga kelajak uchun ma'lum ma'noda poydevor yaratadilar. Networkingni ijobiy tomonlari juda ham ko'pdir. Bir guruh yoshlar ma'lum bir festival yoki yoshlar tashkilotlari tomonidan tashkil qilingan turli forum yoki tadbirlarda o'zaro hamkorlik qiladilar va bora-bora ijtimoiy muloqot zanjirini tuzadilar. Bu holat albatta proyektiv xususiyatga ega ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar tashkilotlari tadbirlar, treninglar va loyihalar orqali yoshlarni innovatsion g'oyalar bilan ishlashga o'rgatadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni nafaqat yoshlarning o'zini jamiyatning faol a'zosi sifatida anglashiga yordam beradi, balki ularning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim sharoit yaratadi. Shu sababli, yoshlarga oid davlat va nodavlat tashkilotlari ularni ushbu jarayonga faol jalb qilinishini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashadi. Ijtimoiylashuv jarayonida yoshlar tashkilotlari yoshlardan faol va sog'lom kommunikativ munosabat talab etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Durkheim É. The Elementary Forms of the Religious Life. 1912.
2. Weber, M. Economy and Society. 1922.
3. Simmel G. Soziologie: Untersuchungen über die Formen der Vergesellschaftung. 1908.
4. Bourdieu P. Les forms de capital. 1986.
5. Habermas J. The Theory of Communicative Action. 1984.
6. Giddens A. The Consequences of Modernity. 1990.
7. Castells M. The Rise of the Network Society. 1996.
8. Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2002. – B.8; Smezler N. Sotsiologiya. – M., 1994. – 215 b.
9. Xaydarov K.A. Yoshlar huquqiy ongini yuksaltirishning zamonaviy texnologiyalari // Academic research in educational sciences, 2023. – B.293.
10. <https://daryo.uz/2024/05/28/o'zbekiston-aholisining-jinsi-va-yosh-guruhlari-demografik-korsatkichlar-qanday>
11. Бекмуродов М. Замонавий бошқарув социологияси. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2020. – 290 б.

12. Отамуродов С.С. Янги Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий-инновацион жараёнлардаги трансформациялашуви: Социологик таҳлил Социология фанлари доктори (ДSc) диссертацияси автореферати Тошкент-2021. – Б.21.
13. Раҳмонов Р., Файзиев Ф. Ёшлар дунёқараши шаклланишида тарихий онг ва тарихий хотира. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2008. – Б.28.
14. Отамуродов С.С. Янги Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий-инновацион жараёнлардаги трансформациялашуви: Социологик таҳлил Социология фанлари доктори (ДSc) диссертацияси автореферати Тошкент-2021. – Б.21.
15. Бобомуродов Э., Бобомуродова Ш. Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий психологияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б.122.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000